

**“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ barcha oddiy ovoz beruvchi  
aksiyalariga ega Yagona aksiyadorining 3-sonli qarori**

Toshkent shahri

“ 5 ” mart 2025-yil

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 84 618 347 341 donani tashkil etadi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

**Kun tartibi:**

**“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarini saylash.**

**Kun tartibidagi masala bo‘yicha:** O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga muvofiq jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining son tarkibini belgilash, ularning a‘zolarini saylash va a‘zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi tegishli topshirig‘iga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashlarining yangilangan tarkibiga rozilik berildi.

Jamiyatning barcha oddiy aksiyalari Yagona aksiyadorining 2024-yildagi 6-oktabrdagi 7-sonli qarori bilan Jamiyat kuzatuv kengashining ikki nafar a‘zosi saylanib, bir nafar mustaqil a‘zosi o‘z arizalariga ko‘ra Kuzatuv kengashi a‘zolidan chiqarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi qaroriga asosan Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarining kuzatuv kengashlariga tayinlangan mustaqil a‘zolar uchun yillik mukofotning eng ko‘p miqdori ularning har biri bo‘yicha 100 ming AQSH dollari ekvivalenti miqdorida belgilangan. Bunda mustaqil a‘zolarga aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishi qarori bilan:

kuzatuv kengashi raisi sifatida amalga oshiradigan faoliyati uchun - shartnomada belgilangan yillik mukofot miqdorining 20 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

kuzatuv kengashi qo‘mitasi raisi yoki a‘zosi sifatida amalga oshiradigan faoliyati uchun shartnomada belgilangan yillik mukofot miqdorining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha mukofot to‘lanishi mumkinligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 74-moddasiga asosan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdorlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanishi o'rnatilgan.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJning Kuzatuv kengashi a'ziligiga **Avazov Alisher Farxod o'g'li** hamda Kuzatuv kengashi mustaqil a'ziligiga **Igor Zaporoshenko** nomzodlari taklif qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Jamiyatning barcha oddiy ovoz beruvchi aksiyalariga ega Yagona aksiyador **qaror qiladi:**

1. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va operatsion samaradorligini oshirish maqsadida Kuzatuv kengashi a'ziligiga **Avazov Alisher Farxod o'g'li** hamda Kuzatuv kengashi mustaqil a'ziligiga **Igor Zaporoshenko** Jamiyatning Ustavida belgilangan muddatga **saylansin**.

3. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosi **Igor Zaporoshenko**ning yillik mukofoti 100 ming AQSH dollari ekvivalenti miqdorida belgilansin.

4. Mazkur mustaqil a'zo Kuzatuv kengashi qo'mitasi raisi yoki a'zosi sifatida amalga oshiradigan faoliyati uchun shartnomada belgilangan yillik mukofot miqdorining 10 foizi miqdorida qo'shimcha mukofot to'lanishi belgilansin.

5. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Boshqaruv raisi (A. Askarov)ga Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi **Igor Zaporoshenko** bilan shartnoma tuzish hamda mazkur qaror ijrosini ta'minlash vazifasi yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya vazirining  
o'rinbosari

 **X. Mustafayev**